

## «Hisobni to'ldirganlik uchun bonus» Aksiyasining qoidalari

«Hisobni to'ldirganlik uchun bonus» Aksiyasi (keyingi o'rinlarda “Aksiya” deb yuritiladi) «Humans» Ma'suliyati cheklangan jamiyat, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 2 B uy, STIR 306624856 (Provayder), tomonidan Humans Xayrxohlik dasturi dorasida o'tkaziladi.

### 1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Ushbu Qoidalarning matnida bosh harf bilan foydalaniladigan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarining ma'nosi [www.humans.uz](http://www.humans.uz) saytida joylashtirilgan HUMANS aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarida hamda Humans Xayrxohlik dasturi qoidalarda keltirilgan (agar ushbu Qoidalarda boshqasi aniq belgilangan bo'lmasa).

1.2. Aksiya ishtirokchilari – Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarini qabul qilgan holda Operator bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan hamda Qoidalarning 2-bo'limida sanab o'tilgan boshqa harakatlarni amalga oshirgan Mijozlar, jismoniy shaxslar.

1.3. Aksiya o'tkazilish hududi: O'zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiya o'tkazilish davri: 2021.01.18 dan 2021.04.15 gacha.

### 2. Aksiya tavsifi

2.1. Aksiya o'tkazilish davrida hamda Aksiya Qoidalarining 2.2. bandida ko'rsatilgan shartlarga amal qilgan holda Aksiya ishtirokchisi ulangan tarif paketi va cheksiz ilovalar opsiyalari, shuningdek “Cheksiz SMSlar” opsiyasi (aynan nima ulanganiga bog'liq) narxining 10% (o'n foizi) miqdorida o'z Keshbek hisobiga (keyingi o'rinlarda “Bonus” deb yuritiladi) Bonus qabul qilib oladi.

#### 2.2. Aksiya shartlari

2.2.1. Aksiyada quyidagi talablarga javob beradigan Ishtirokchilar qatnashishi mumkin:

- Ishtirokchida narxi 0 so'mdan yuqori va hisob-kitob davri 30 kunga teng bo'lgan Tarif paketi ulangan.
- Ishtirokchining Humans mobil ilovasi sozlamalarida Tarif paketini avtomatik uzaytirishga ruxsat berilgan.
- Tarif paketi bo'yicha navbatdagi Hisob-kitob davri tugagan sanadan 1 soat va undan ko'proq vaqt o'tgan.

2.2.2. Aksiya o'tkazilishi davrida 2.2.1. bandida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan Ishtirokchilarga Shaxsiy hisobvarag'ini amaldagi tarif paketini avtomatik uzaytirish uchun yetarli bo'lgan summaga to'ldirganida Cheksiz ilovalar opsiyasi, shuningdek «Cheksiz SMSlar» opsiyasi (agar ulangan bo'lsa), shuningdek Ishtirokchining Shaxsiy hisobvarag'i balansini inobatga olgan holda Bonus o'tkaziladi.

2.3. Bonus Tarifning avtomatik tarzda uzaytirilishida Ishtirokchining keshbek hisobiga o'tkaziladi.

### 3. Yakuniy qoidalar

3.1. Ushbu Qoidalar Humans Saytida chop etilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarga o'zgarishlar kiritishga yoki Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali oldindan ma'lum qilgan holda Aksiyani bekor qilishga haqli. Ma'lum qilingan sana – Saytda tegishli ma'lumot chop etilgan kun. Saytda tegishli ma'lumot chop etilgan vaqtdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya bekor qilingan sanaladi.

3.2. Qoidalarning 2-bo'limida sanab o'tilgan harakatlarning Mijoz tomonidan bajarilishi jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta hisoblanuvchi Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz rozilikni anglatadi.

3.3. Ishtirokchi tomonidan to'lov bekor qilinsa yoki uning miqdori o'zgartirilsa, Humans Keshbek hisobga bonus o'tkazishni bekor qilishga haqli.

3.4. Ushbu qoidalar bilan tartibga solinmagan boshqa hollarda Humans Xayrixohlik dasturi qoidalari amal qiladi.